



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ONA TILINING GRAMMATIK QURILISHINI O'ZLASHTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Muslima Nuriddinova Komiljon qizi

FarDU Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Fozilova Odina Nabiyevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7768900>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 18-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 24-mart 2023 yil

KEY WORDS

grammatika, nutq, so'z boyligi,
lingvistika, adabiy til
shakllanishi, ilg'or pedagogik
texnologiyalar, qo'shma gaplar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ona tilining grammatik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqida grammatik qurilishning ahamiyati xususida fikr yuritilgan..

Maktabgacha ta'lif tashkiloti oldida bolalarga to'g'ri so'zlashni o'rgatish, ya'ni so'zlardagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri grammatik shakllarni qo'llashni o'rgatish vazifasi turadi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida asosiy faoliyat o'yin bo'lib, mahoratli tarbiyachilar aynan o'yin orqali bolaga har tomonlama bilim bera oladilar.

Grammatikani bola turli nutqiy faoliyat jarayonida mustaqil ravishda o'zlashtiradi. Uch yoshli bola tur, son, zamon, shaxs kabi grammatik kategoriyalardan foydalanadi hamda oddiy va qo'shma gaplarni qo'llaydi.

Bolalar aks ma'noli so'zlarning o'zaro bog'liqligini, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni, so'z yasovchi juftlikdagi so'zlarni o'zlashtiradilar. Ko'p ma'noli nomlar bilan tanishadilar: qizchaning qo'li, qo'g'irchoqning qo'li, dazmolning ushlagichi, qutining ushlagichi, qozonning qulog'i, bolaning oyog'i, stulning oyog'i, gulning oyog'i, qushning oyog'i. Grammatikaning asosiy o'rghanish ob'yekti so'z bo'lganligi uchun u leksikologiya – so'zlarni, ularning ma'nolarini, bir-biri bilan aloqalarini va shakllanish tarixini o'rganuvchi fan bilan chambarchas bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bola bilan grammatikani o'rganayotganda, bolaning grammatik shakllarni to'g'ri talaffuz qilishini ta'minlash kerak.

Grammatik shakllar bilan tanishish bola o'z ona nutqini eshitishi bilanoq boshlanadi. Tabiiyki, go'daklik va erta bolalik davrida o'rghanish passiv, ixtiyorsiz shaklda amalga oshiriladi. Chaqaloq kattalarning malakali monologlari yoki dialoglarini qanchalik tez-tez eshitsa, unga yoshi bo'yicha yaxshi bolalar kitoblari qanchalik ko'p o'qilsa, u so'z yaratish tamoyillarini shunchalik faol o'zlashtiradi va so'zlarni yanada murakkab tuzilmalarga joylashtirish qoidalarini o'rganadi. Grammatikani o'rghanishga bag'ishlangan pedagogik elementlarni 3-4 yoshdanoq maqsadli ravishda kiritish mumkin. Grammatik ko'nikmalar asta-sekin

shakllanadi, nutq sifati asta-sekin yaxshilanadi. O'zbek tilining grammatik tizimi juda murakkab bo'lgani uchun uni o'zlashtirish uchun yillar kerak bo'ladi. Tarbiyachi bolalarning shevaga oid nuqsonlariga ham e'tiborni qaratishi zarur. Qayd etish lozimki, bolalar nutqida sheva bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etish ancha qiyin, chunki bola uyda, ba'zan Maktabgacha ta'lim muassasasida ham doimo kattalarning shevaga xos nutqini eshitadi. Bu muammoning oldini olish uchun albatta, tarbiyachi asosan adabiy tildan foydalanishi lozim. Bola tilga nisbatan sust munosabatda bo'lmaydi, aksincha u faol bo'lgani holda til hodisalarini o'zi anglamagan holda doimiy ravishda taxlil qiladi. Bola tayyor shakllarni «qabul qilmaydi», aksincha ularni ma'lum qoidalar asosida tuzib chiqadi. Bu qoidaning mohiyati shundaki, bunda bola til belgisini birgalikdagi semantik va grammatik birlik sifatida o'zlashtiradi. Butun til rivojlanishining asosida bolani predmetli faoliyati yotadi. Bolaning til borlig'i elementlari bilan harakati mohiyatan, xuddi predmetli olam bilan amalga oshiriladigan harakatlar kabitidir. Taniqli psixolog D.B.Elkonin ham aynan shunga e'tiborni qaratgan. U umuman olganda, o'zlashtirish bilan moddiy predmet sifatidagi harakatlarni shakllantirmasdan turib uni amalga oshirish mumkin emasligini qayd etgan. Ushbu harakatlar chog'ida bolada til borlig'i haqidagi tasavvur shakllanadi. Bola bu tasavvurlarni o'zining predmetli olam haqidagi bilimlariga mos ravishda shakllantiradi.

Tarbiyachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u bolalarga iborali nutqdan amalda foydalanishni o'rgatishi, ya'ni nutqda asosiy grammatik kategoriyalarni to'g'ri qo'llash, so'zni soni, kelishigi, shaxsi, zamoniga qarab amalda o'zgartirishni o'rgatishi lozim.

Bitta surat syujeti asosida savollar berish va bolaning unga javob qaytarishi savol-javob tusidagi qiziqarli mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Masalan, «Bola qo'lini yuvmoqda» surati asosida qator savollar berish mumkin: «Xurshid, Timur, Alisher nima qilishayapti?», «Alisher nimani yuvmoqda?», «Biz qo'limizni nima bilan yuvamiz?», «Kimning qo'li toza?»

Yetti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplarni, bir xil a'zoli gaplarni to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan ko'shma gaplardan foydalanadi.

Bolalar nutqining sintaktik qatorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni tuzish, qo'shma gaplarni to'g'ri tuzishlariga e'tiborni qaratishi lozim. Faqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha grammatik shakllarni o'zlashtirgan taqdirdagina bola mifik tabda o'qishga yaxshi tayyorlangan bo'ladi. Bolalar doimo turli xil so'zlarning haqiqiy hayotda qanday qo'llanilishini, ular bir-biriga qanday bog'liqligini va bir-biriga qanday mos kelishini eshitishadi. Bolalar o'xshash hayotiy vaziyatlarda ishlataladigan bir xil grammatik tuzilmalarni minglab marta ko'rishadi. Inson miyasi 6-7 yoshgacha eng faol rivojlanadi. Bu yoshda bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy aniqlash va istisnolarni eslab qolishga qodir. Bolalar kattalarning nutqini tahlil qiladilar va ilgari eshitmagan iboralarni o'xshashlik bilan aytishga harakat qilishadi. Agar ular noto'g'ri bo'lsa, kattalar ularni tuzatadi. Shunday qilib, bola o'zi uchun istisnolar va yangi qoidalar haqida bilib oladi. Shunday qilib, yosh bolalar uchun ona tili grammatikasini o'rganishning asosiy tamoyili og'zaki nutqda to'g'ri grammatik tuzilmalarni takroran takrorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T., Istiqlol, 2006.

2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi -T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.
3. Zokirova H., Qobiljonova G. O'qituvchi nutq madaniyati. -Andijon, 2010
4. Abdullayeva M.A., Raxmatullayeva D.R. O'yin mashg'ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lif yoshidagi bolalar faolligini oshirish. -Toshkent. 2016 - yil.
5. Soliev I. S. Factors of formation of information competence of future primary school teachers //Наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 218-220.
6. Soliyev I., Akbarova M. MENYER KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ALOMATLARI //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 98-100.
7. Ergasheva D. et al. FORMATION OF CORRECT READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL PUPILS //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1675-1678.
8. Turg'unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI O 'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 1. – С. 162-164.
9. Ergasheva D. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1675-1678.
10. Sobirovich S. I. et al. DUDUQLANISH KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING TURLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 129-131.

INNOVATIVE
ACADEMY